

QADIMGI G'ARB VA SHARQ ALLOMALARINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI HAQIDAGI G'OYALARI

Bekchanova Kuvanch Roximovna

*Uraganch davlat universiteti "Pedagogika va
psixologiya" kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadimgi g'arb va sharq allomalarining maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi haqidagi goyalari borasida ma'lumotlar, qimmatli fikrlari, qarashlari inson kamoloti, ruhiyati, talim tarbiyasini shakllantishga bag'ishlangan. berilgan.*

Аннотация. *В данной статье приведены сведения, ценные мнения и взгляды древних западных и восточных ученых о психологическом развитии детей дошкольного возраста.*

Abstract. *In this article, information, valuable opinions and views of ancient Western and Eastern scholars about the psychological development of preschool children are given.*

Tayanch so'zlar: *Maktabgacha yosh davri, bolalar, psixologiya, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi, oyin, irodaviy sifatlar.*

Ключевые слова: *Дошкольный возраст, дети, психология, собственные навыки самоконтроля, игра, волевые прилагательные.*

Key words: *Preschool age period, children, psychology, self-self control skills, playfulness, volitional qualities.*

Respublikamizda 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish» kontsepsiyasini ishlab chiqildi. Kontsepsiya O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'limni rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. [1]

Hammamizga ayonki, maktabgacha ta'lim bola shaxsining shakllanishida muhim ahamiyatga kasb etadi. Binobarin, maktabgacha ta'lim tashkilotida har tomonlama tayyorlanib maktabga borgan bolajonlarning yutuqlari erishish imkoniyati kengayadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, axloqiy, irodaviy sohalarining rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ham Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Maktabgacha ta'lim tizimida innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va mexanizmlarini keng joriy etish uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarini kerakli

jihozlar bilan ta'minlash, qulay sharoitlar yaratish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekiston respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimida uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. Chunki mazkur ta'lim tizimini rivojlantirish, bolani intellektual salohiyatli, qattiyatli, bir so'z bilan aytganda har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida shakllanishida ahamiyati nihoyatda katta. Albatta maktabgacha talim tizimi sog'lom, barkamol o'z-o'zini boshqara oladigan bola shaxsini shakllantirishda va uni maktab talimiga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada qadimgi davrda g'arb va sharq mutaffakirlari maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashdagi fikrlari ahamiyatga molikdir.

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, islohotlar maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama yetuk, salohiyatli shaxs sifatida shakllanishiga imkon beradigan va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi rivojlanishini uchun pedagogik-psixologik sharoitlarni izlash va yaratish bilan bog'liq. Ushbu muammoni hal qilishda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda kelajakda o'z o'rnini topa bilish, ulardagi irodaviy sifatlar, xulq-atvorni shakllanishi, shaxslararo munosabalar, qattiyatlilik va o'z-o'zini boshqarish xususiyatlariga mos kelishi bilan bog'liq. Shaxsning o'zini o'zi boshqarish tizimini shakllantirish va rivojlantirish maktabgacha ta'limning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Psixologiya fani dastlab falsafa fanlari tarkibida bo'lib, XIX asrlarda mustaqil fan sifatida ajralib chiqqan. Psixologiya fani o'zining tarixiy taraqqiyotida 2ta davrga ajratiladi. Bu davrlar psixologiyaning falsafa fanlari tarkibida davri va psixologiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanib borishini o'z ichiga oladi. Qadimgi davrda psixologiya fanining rivojlanishida garb va sharq mutaffakirlarining nihoyatda ahamiyatlidir. Psixologiyani rivojlanishida garb mutafakkirlaridan Geroklit, Demokrit, Platon, Aristotel, Gippokrat va boshqalarni tilga olsak bo'ladi.

Platon bilan Aristotel yaratgan ruh haqidagi ta'limot o'rta asrlarda Sharqda ham, g'arbda ham hukmron bo'lib qoldi. Psixologiyadagi bu oqim keyinchalik (XVIII asrda) metafizik yoki ratsionalistik psixologiya deb nom oladi [4.16b]. Psixologiyaning otasi deb tan olingan Aristotelning ruh haqidagi ta'limoti qadimgi garb psixologiyasining cho'qqisi hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joyizki Geraklit, Demokrit, Aflotun, Arastularning ta'limotlari keyingi psixologik ta'limotlar, qarashlar g'oyalarning rivojlanishi uchun tayanch nuqta bo'ldi. Garb mutafakkirlarida yana biri «Tibbiyotning otasi» Gippokrat o'z qarashlarida tafakkur va sezgilar organi miya ekanligini ta'kidlab o'tadi. Fransuz faylasufi Dekartning ta'limoti bilan psixologiya

tarixidagi g'oyat muhim bosqich boshlanadi. U o'zining asosiy fikrlarini «Aqlni boshqarish qoidalari», «Ruhlar ehtirolari», «Odam haqida» nomli asarlarida yoritib o'tgan.

Markaziy Osiyoda esa psixologik ta'limotlarning rivojlanishi VII-IX asrlarga to'g'ri keladi. Sharq mutafakkirlaridan psixologiyani rivojlanishida Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib o'z asarlarida beqiyos hissa qo'shganlar. Aynan bu allomalarimiz qo'lyozma asarlarida komil inson tarbiyasiga ham katta etibor qaratilgan.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog'liq bo'lgan psixologik, fiziologik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat, deb aytadi[3.52b]. Allomamiz o'z qarashlarida insonning aqli, fikri, uning ruhiy barkamolligining eng yetumahsuli ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bizningcha mutafakkir o'z asarlarida insonning tana a'zolari tug'ilgandan mavjud, ammo uning aqli, bilimi, manaviy va axloqiy xislari, xarakteri va boshqa psixologik xususiyatlari boshqa insonlar bilan muloqotda vujudga kelishini aytib o'tadi. Bu firkdan kelib chiqadiki, shaxsning irodaviy sifatlarni shakllanishi, qattiyatliligini va o'z- o'zini boshqarish ko'nikmasi rivojlanishi bolalik davriga borib taqaladi.

Sharq mutafakkirlaridan yana biri Abu Rayhon Beruniy bo'lib, u ta'lim va tarbiya, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqida fikrlar bildirib, ular chin ma'noda insonparvarlik ruhida yozilgan.

Abu Rayhon Beruniy bilim va tarbiyaning tabiatga uyg'unlik tamoyillariga tayangan xolda, insonni tabiatning bir qismi deb ta'kidlaydi. Allomamiz yosh avlodga ta'lim tarbiya berishda, ularning yosh xususiyatlarini etiborga olish, bolalarning baxt-saodatli, porloq kelajakli va o'z- o'zini boshqara oladigan, irodasi mustaxkam komil inson bo'lish shakllanishidagi asosiy masalalardan biri ekanini aytib o'tadi.

O'rta asrda yashab, ijod etgan sharq mutafakkirlaridan yana biri, tabobat ilmining otasi Abu Ali ibn Sinoning asarlarining asosini inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi kabi fikrlar tashkil etadi. Uning fikricha bolani tarbiyasida asosan tarbiya metodlariga, axloq qoidalariga rioya qilish, ichki va tashqi dunyosini bilish lozim. Bu esa bolani har tomonlama yetuk bo'lib rivojlanishining muhim negizlaridan biridir.

Yusuf Xos Hojib ham o'z ijodida bosh masala sifatida - komil insonni

Tarbiyasi masalasini ilgari surgan allomalarimizdan biridir. Uning «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi bilim») asari ta'lim-tarbiya, axloq -odob va yosh avlodni ma'naviy kamolotiga bag'ishlangan. Bu asar erta davrlarda bolalarni ma'naviy kamolotga yetkazishga xizmat qiladi.

Kaykovusning «Qobusnoma» asari pand- nasixat tipida yozilgan asar bo'lib uning aynan 27- bobi psixologik jihatda analiz qilingan .Bunda,erta davrlarda farzandni tarbiya qilish haqida to'xtalgan. Shuni takidlash lozimki, allomamizning bu asarida aynan bolalarni o'z- o'zni boshqara oladigan,har tomonlama shakllangan komil inson qilib tarbiyalash masalasiga katta e'tibor beriladi.

Yuqorida sanab o'tilgan garb va sharq mutafakkirlarining nodir asarlari, qimmatli fikrlari, qarashlari inson kamoloti,ruhiyati,talim tarbiyasini shakllantishga bag'ishlangan. «Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan

yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o'rganishda ta'lim tizimi imkoniyatlarga alohida e'tibor qaratishlozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o'rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega» [2.43b].

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz joizki, farzandalarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalashda,o'z- o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirishda tarbiyaning barcha turlariga e'tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.Biz bilamizki ota-bobolarimizdan qolgan boy ma'naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o'rni va roli o'ziga xos xususiyatga va ko'rinishlarga ega. Bunda kelib chiqadiki har bir mutafakkirlarimiz asarlarida takidlanishicha o'z-o'zini boshqarish ko'nikmasi rivojlanishi nafaqat xulq-atvor darajasida bo'ladi,balki his-tuyg'ularida, hatti harakatlarida ham namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi» Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
2. Jalilov.Z.B: «Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari». Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017 yil, 5-son.
3. Nishonova Z.T, Kamilova N.G', Abdullayeva D.U,Xolnazarova M.X; «Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya» T.: -52r)
4. . Haydarov F., Jo'rayev N., Tojiyeva S. «Psixologiya tarixi»-T.: 2005-16b